

Turabova Sevara Kattaqulovna,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
E-mail: turobova.sevara@mail.ru

TALABALARNING ERISTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARNI IMPLEMENTATSIYA QILISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada hozirgi davrning ijtimoiy-siyosiy talab-ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bugungi kun talabalarida eristik kompetentlikni rivojlantirish masalalarining tobora ilmiy-tadqiqot mavzusiga aylana boshlanishi va aksariyat horijiy oliy o'quv yurtlarida nafaqat ma'lum kurslar doirasida, balki alohida fan sifatida o'rganilish sabablari argumentlash nazariyasi va amaliyoti muammolari misolida tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlarning o'z pozitsiyasini asoslay bilish, munozara jarayonida to'g'ri isbotlash va asosli qarorlar qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish zaruriyatining mavjudligi dalillarga asoslangan bahs yuritish madaniyatini tarbiyalash bilan uzviy aloqadorligi asoslangan.

Kalit so'zlar: bahs, eristika, eristik kompetensiya, dalil, isbot, nutq, muammo, argumentlash nazariyasi va amaliyoti, ishonch-e'tiqod, mantiqiy fikrlash.

ВОЗМОЖНОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ЭРИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье, исходя из социально-политических требований современности анализируются причины потребности формирования эристической компетентности студентов на примере проблем теории и практики аргументации. Эристическая компетенция всё больше становится объектом научных исследований и изучается не только в рамках отдельных курсов, но и как отдельный предмет в большинстве зарубежных вузов. Также, в статье раскрывается взаимосвязь воспитания культуры аргументации студентов и необходимости развития у них таких навыков, как умение обосновывать свою позицию, правильно доказывать в процессе дискуссии и принимать обоснованные решения.

Ключевые слова: спор, эристика, эристическая компетентность, аргумент, доказательство, речь, проблема, теория и практика аргументации, убеждение-верование, логическое мышление.

OPPORTUNITIES FOR THE IMPLEMENTATION OF THE BEST FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING THE ERISTIC COMPETENCE OF STUDENTS

Abstract

In the article, based on the socio-political requirements of the present, the reasons

for the need to form students' eristic competence are analyzed on the example of problems in the theory and practice of argumentation. Eristic competence is increasingly becoming an object of scientific research and is studied not only as part of individual courses, but also as a separate subject in most foreign universities. Also, the article reveals the relationship between cultivating a culture of argumentation among students and the need to develop such skills as the ability to justify their position, correctly prove in the process of discussion and make informed decisions.

Key words: *dispute, eristic, eristic competence, argument, proof, speech, problem, theory and practice of argumentation, belief-belief, logical thinking.*

Kirish

Jahon miqyosida yoshlarni erkin fikrlashlariga erishish va turli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatishning samarali vositasi sifatida o'z-o'zini anglash, o'z shaxsiyatiga nisbatan hurmat hissini tarkib toptirish, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunga muvofiq O'zbekistondagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham ta'lim sifatini oshirish masalasini dolzarblashtirdi, bunga javoban esa mamlakatimizdagi "Ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun huquqiy kafolatlar va mexanizmlar takomillashtirildi" [1.]. Xususan, bugungi kunda oliy ta'lim amaliyotida zamonaviy ta'lim texnologiyalari samarali qo'llanila boshlanishi natijasida, an'anaviy ta'lim tizimi o'z mazmunini tobora modifikatsiyalashtirishga majbur bo'ldi. Oliy ta'limda talabalarga tobora ko'proq taklif etilayotgan ana shunday modifikatsion ta'lim texnologiyalaridan biri eristik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi. "Eristik kompetensiya (qad yun. eristike techne – bahslashish san'ati) bahs nazariyasi asoslari haqidagi bilimlarni, uni konstruktiv olib borishning ko'nikma va malakalarini o'z ichiga oladi" [6, c.226].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Eristika" (qad. yunon. yeridzo-bahslashaman, eristike techne – bahslashish san'ati) tushunchasi "bahs yuritish san'ati" degan ma'noni anglatib [16, c.9], bu san'at turi yunonlar tomonidan e'tirof etilgan bahs va tortishuvlarni keltirib chiqaruvchi Erida, Eris ma'budasi nomi bilan atalgan (qadimgi yunon afsonalariga ko'ra Erida ziddiyat va janjallar ma'budasi bo'lib, u tun ma'budasi Niktaning qizi, Xaosning nevarasi va ochlik ma'budasi Limesning onasi hisoblangan. Erida nafaqat bahs, nizo, kurash, raqobat ma'budasi balki ayni bir paytda mehnat ma'budasi ham hisoblangan). Gesiodning «Teogoniya» (qad.gr.- Θεογονία) 10;11 poemasi [2, c. 52, 217] aytilishicha Erida ikki xil sifatga ega ma'buda bo'lib, uning sifatlaridan biri insonlarni mexnatga chorlab, ularga foydasi tekkan bo'lsa ikkinchi sifati esa insonlar o'rtasida dushmanlik va nafratni qo'zg'atib urush janjallarni keltirib chiqargan. Erida shuningdek eng go'zal ma'budalar Afina, Gera va Afroditalar o'rtasidagi ziddiyatning kelib chiqishiga ham sababchi bo'lib, oqibatda bu ziddiyat Troya urushini keltirib chiqargan.

Avvaliga "eristika" deyilganda bahs-munozara jarayonida g'alaba qozonish uchun ishlatiladigan usullar yig'indisi tushunilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu atamaning ma'nosi biroz o'zgargan, ya'ni, eristika deyilganda "muloqot jarayonining murakkab usullaridan biri bo'lgan bahs-munozaraning turli tavsiflarini

(ahloqiy, ritorik, mantiqiy, pedagogik, semiotik, psixologik va hokazo) o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yo'nalishi" [7, c. 792] tushuniladi. Bahs-munozaraga eristik yondashuv o'z nuqtai nazarining chinligiga ishonirish va raqibning fikrini inkor etish sifatida Qadimgi Yunonistonda vujudga kelgan san'at ko'rinishida hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bunda kishi o'z nuqtai nazarini himoya qilish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lishi va birinchi navbatda raqibning mulohazasida mantiqiy xatolarni topishi, sofistlik, psixologik tuzoqlar va polemikadagi noqonuniy usullarini ocha bilishi zarur bo'ladi. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib «Eristika yoki bahslashuv san'ati» kitobining muallifi bo'lgan Artur Shopengauer eristika nazariyasiga yondashar ekan u "eristik dialektika-bahsda doimo haq bo'lib chiqish san'ati" [17, c.618-619] ya'ni "*per fas et nefas*" [18, c.12], deb tushuntiradi. A. Shopengauer eristik xulq-atvorning kelib chiqish sababini bahslashuvchi shaxsning psixoemotsional tabiatidan izlaydi. Shopengauer fikricha, "haqiqat dialektik (dialogik) mexanizm sifatida faqat bahsda tug'ilishi mumkin. Biroq, inson tabiatida yashiringan subyektiv sabablar nafaqat bahsda haqiqatga erishishga halal beradi, balki haqiqatga erishishni amalda imkonsiz ham qilib qo'yadi" [19, p.52].

A.P.Skovorodnikov eristik kompetensiyani bazaviy madaniy kompetensiyalar tarkibiga kiritar ekan uni keng kommunikativ-nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadi [6, c.8]. A.P.Skovorodnikovning fikricha, eristik kompetentlikni rivojlantirishning muhimligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, ushbu subkompetensiya odatiy muloqot baryerlari va konfliktogen vaziyatlarni bilishni, ularning oldini olishni va yuzaga kelgan taqdirda ularni optimal tarzda yengib o'tish malakasiga ega bo'lishni shakllantiradi;

ikkinchidan, eristik kompetentlik odamlarning ongi va xulq-atvorini nutq orqali manipulyatsiya qilish usullaridan habardor bo'lishga (shaxsiy va jamoaviy axborot xavfsizligini ta'minlash uchun) xizmat qiladi;

uchinchidan, eristik kompetentlikni o'rganish muloqotning kundalik va mafkuraviy sohalarida manipulyatsiya ta'siriga qarshi tura olish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola ilmiy bilishning tarixiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, tizimlashtirish, induksiya, deduksiya va modellashtirish usullari asosida yoritilgan bo'lib. talabalarning eristik kompetentligini rivojlantirishda ilg'or tajribalarni implementatsiya qilish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar.

Eristik kompetensiya "epistemik hushyorlik", axborot va uning manbasiga tanqidiy munosabatda bo'lish qobiliyati sifatida zamonaviy hayotning ajralmas sharti xisoblanadi. Uning yo'qligi soddalik, haddan tashqari ishonuvchanlik va nihoyat, nodonlik bilan chegaralanadi. Zero, eristik kompetentlik bo'lajak mutaxassisning shaxsini shakllantirishda va uning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatida eng muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda eristik kompetentlik masalasiga sezilarli darajadagi qiziqishning paydo bo'lishiga turli ijtimoiy harakat vakillari o'rtasida o'zaro fikr almashish uchun qulay shart-sharoitlar yaratgan ijtimoiy hayotni

demokratiyalashtirish jarayonlari sabab bo'lmogda, deb ta'kidlasak o'rinli bo'ladi. Shu bilan birga, jamiyat hayotida yangidan-yangi sohalarining tobora jadal rivojlanishi, qolaversa, ta'lim, siyosat, yurisprudensiya, falsafa, din va psixologiya kabi sohalarida odamlarning e'tiqodlariga ta'sir o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan professional mutaxassislarni ko'proq tayyorlash ehtiyoji ham ishonch-e'tiqodga ta'sir ko'rsatish usullarini maxsus tadqiq etish zarurligini dolzarblashtirdi. Zero, aynan eristik kompetensiya asoslar keltirish yo'li bilan boshqa tomonning pozitsiyasini o'zgartirish, nutq ta'sirida tinglovchilarni ishontirishning turli usullarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, «Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz, buning uchun, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu bois ham bugun bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlari isloh qilinmogda»[2.].

Afsuski, isbot va dalillarga asoslangan fikrlash qobiliyati hozirgi kunda milliy mentalitetimizning kuchli tomoni sifatida o'zini har doim xam namoyon etayotgani yo'q. Bunga nafaqat kundalik ongning namoyon bo'lishi bilan duch kelgandagina, balki ko'pgina siyosatchi va jamoat arboblarning nutqlarini tinglash, televizion munozaralarni tomosha qilish, ijtimoiy saytlardagi muhokamalar va hokozalar chog'ida ham guvoh bo'lishimiz mumkin. O'ziga va suhbatdoshiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lgan holda o'z nuqtai nazarini asosli himoya qila olmaslik, bahs-munozarani asosli tarzda o'tkaza bilmaslik, shubhasiz tafakkur madaniyatining sayozligidan dalolat beradi. Afsuski, bu qusur ba'zida hatto milliy o'ziga xoslik, ya'ni "o'zbekona odob-axloq", "sharqona vazminlik" kabi sifat darajasiga ko'tarilib ham oqlanadi. Aslida esa yuqoridagiday eristik kompetentlikning rivojlanmaganligini oqlashga asos yo'q.

Ma'lumki, ishonch-e'tiqod nafaqat real voqelik haqidagi mavjud tasavvurlarni, balki qadriyatlar, g'oya, meyor va maqsadlarni ham o'z ichiga qamrab oladigan jarayondir. Ularga ta'sir etish orqali esa odamlarning xatti-harakatlarini o'zgartirish mumkin bo'ladi. Bu, ayniqsa, elektron ommaviy axborot vositalari ulkan rol o'ynaydigan zamonaviy jamiyatda o'ziga jiddiy diqqat-e'tiborni jalb qilmogda. Xususan, bahsning didaktik aspektlari ("Debat" jamoaviy o'yini, eristik va argumentativ "treninglar", "sparringlar" va b.) bugungi kunda ta'limdagi interaksionalarning barcha sohalarida, tanqidiy fikrlashning (critical thinking) didaktik nazariyasi va amaliyotida tobora ommalashib dolzarb bo'lib bormogda [9, p. 165-182]. Ayniqsa AQSh va Yevropadagi ta'lim muassasalarida [13, p.229-246] va asta-sekin "innovatsion o'qitish usullari" sifatida MDH davlatlaridagi ta'lim sohasiga bahsning didaktik aspektlari jadal kirib kelmogda[14, c.87-91]. Shu bois jaxondagi aksariyat davlatlarning oliy ta'lim tizimi o'quv dasturlariga bahsni xususi shakli sifatida olib urganadigan maxsus "Argumentlash nazariyasi va amaliyoti" fan sifatida kiritilganligi bejiz emas.

Argumentativ komponentlar AQSh va G'arb davlatlarining universitetlarida o'qitiladigan ko'plab fanlarning tarkibiga implitsit tarzda kiritilganligining guvohi

bo'lish mumkin. Shuningdek, bu davlatlarning bir qator universitetlarida argumentativ nutq kommunikatsiya vositasi sifatida qabul qilinib, u barcha o'quv dasturlarida majburiy komponent sifatida ham e'tirof etiladi. Buning sababi shundaki, bu davlatlardagi siyosat, hokimiyat va sud tizimidagi muvaffaqiyatlar argumentativ nutq ko'nikmalarining nechog'lik rivojlanganligi bilan bevosita chambarchas bog'liq ravishda kechadi. Qolaversa, hozirgi davrning ijtimoiy talab-ehtiyojlari bugungi kunda argumentlash nazariyasi masalalarining tobora ilmiy-tadqiqot mavzusiga aylana boshlanishiga va oliy o'quv yurtlarida nafaqat ma'lum kurslar doirasida, balki alohida fan sifatida o'rganilishiga sabab bo'lmoqda.

Biroq bugungi kunda yoshlarning bahslarda o'z pozitsiyasini asoslay bilishi, to'g'ri isbotlash va asosli qarorlar qabul qilishi kabi ko'nikmalarni rivojlantirish zaruriyatining mavjudligi argumentlash nazariyasi va amaliyoti prinsiplarini fan darajasida o'rganishni taqozo etsa-da, O'zbekistondagi oliy ta'lim tizimidagi o'quv dasturlarida argumentlash nazariyasi va amaliyotiga doir masalalarga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligini kuzatamiz. Albatta, shu o'rinda haqli ravishda tan olib aytib o'tish kerak, avvalo ma'lum bir fan oliy ta'limning o'quv dasturiga o'qitiladigan fan sifatida kiritilishi uchun u yetarlicha to'liq nazariy asosga ega bo'lib, amaliy aprotatsiyadan o'tgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, o'sha fan o'quv kursiga aylantirilishi uchun yetarli darajada ilmiy rivojlantirilgan va tegishli doirada uslubiy ta'minotga ham ega bo'lgan bo'lishi lozim. Ya'ni bu sohada darsliklar yozilishi, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Biroq yurtimizning oliy ta'lim tizimida boshqa bir qator mamlakatlarning ta'lim tizimidan farqli ravishda dalillash nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan vaziyat butunlay boshqacha. Ya'ni, garchand Sharq xalqlari tafakkuri taraqqiyoti tarixida qadimdan ko'plab allomalarimiz dalillash muammosini dialektika san'ati (Forobiy [4, c. 405], Ibn Sino [11, b. 144], haqiqatni izlash vositasi bo'lgan bahs san'ati (At-Termiziy, Moturudiy, Nasafiy [3, b. 536]), Jurjoniy [6], notiqlik san'ati (Koshifiy, Nizomi mulk) bilan bog'liq holda chuqur o'rganib, bizga boy ilmiy meros qoldirgan bo'lishlariga qaramay, hanuz O'zbekistonda yagona qabul qilingan zamonaviy dalillash nazariyasi yaratilmagan. Shu nuqtai nazardan universitetlarimizda "Dalillash nazariyasi va amaliyoti" deb nomlangan fanni o'qitish bugungi kunda qat'iy ilmiy nazariya mavjud emasligi bilan ham murakkablashadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dalillash nazariyasining asosini tashkil etadigan ishonarli nutqning ratsional-mantiqiy omillariga doir muammolar ozmi-ko'pmi ma'lum darajada notiqlik kurslarida ham o'rganiladi. Ammo notiqlik san'atida asosan nutqning stilistik, psixologik, axloqiy, hissiy va estetik jihatlarigina ko'rib chiqiladi. Argumentativ kompetentlikning yuqorida ko'rsatilgan sodda ko'rinishdagi komponentlari uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lishiga qaramay, biroq xanuzgacha har tomonlama takomillashgan ishonarli nutqning yangi shakllariga talab-ehtiyojlar ilgari surilmoqda. Natijada ishonch-e'tiqodni uyg'otuvchi nutqni tahlil qilishning yanada yangi va aniq usullari ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi esa tafakkur taraqqiyotidi muhim ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy argumentlash nazariyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Xulosa

Eristik kompetentlik muammosini ilmiy-tadqiqot doirasida o'rganish talabalarning nutqqa ongli munosabatda bo'lish, boshqalarning nutqini tushunish va o'zining nutqini asosli qurish ko'nikmasini tarbiyalash, bahs-munozarani malakali olib borish, mantiqiy va psixologik tuzoqlarni farqlay olish va bilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarga zamonaviy argumentatsiya asoslari, uning konseptual apparati, demonstrativ va nodemonstrativ fikrlash xususiyatlari, ularni turli argumentativ nutqlarda qo'llash to'g'risidagi bilimlarni berish kerak. Talabalarning argumentatsiyaning asosiy tushunchalari bilan tanishishi, eristik nutqning turli aspektlarini yoritib berishga yordam beradi. Bunday ishlar natijasida talaba ongli ravishda ratsional nutq normalariga tayanadi va bahs-munozara jarayonida raqiblaridan ham shu normalarga rioya etishini talab qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Ratsional nutq meyorlarini va munozaralarni olib borish qoidalarini o'zlashtirish talabalarga fikrlarni aniq ifoda etish, ilgari surilgan tezislarni asoslash, o'z pozitsiyalari va manfaatlarini isbot va dalillar bilan himoya qilish qobiliyatini o'zlashtirishga yordam beradi. Natijada ularning mustaqil tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Zero, talabalarning dalillashga doir bo'lgan bilimlaridan kelajakdagi kasbiy faoliyatida, ishbilarmonlik muzokaralari va suhbatlarida foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Chunki, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan inson bunyodkor g'oyalarni buzg'unchi g'oyalardan farqlay oladi. Hech qanday buzg'unchi g'oya, hatto mafkura ham mantiq kuchiga dosh bera olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni» 23.09.2020 y. N - 637.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020-yil.
3. Abu Muin Nasafiy. Tabsiratul adilla fi usulid din (Din asoslari bo'yicha dalillar bayoni). 4 jildli. –Toshkent: Movarounnahr, 2018. J. I. – 440 b.; J. II. – 576 b.; J. III. – 536 b.; J. IV. – 536 b.
4. Аль-Фараби. Диалектика. Историко-философские трактаты. –Алма-Ата: “Наука”, 1985. – С. 405.
5. Гесиод. Полное собрание текстов / Вступительная статья В.Н.Ярхо. Комментарии О.П.Цыбенко и В.Н.Ярхо. – К.: Лабиринт, 2001 –256 с.
6. Сковородников, А.П. Эффективное речевое общение (базовые компетенции): словарь-справочник / А.П. Сковородников. – Красноярск, 2014. – 852 с.
7. Копнина Г.А. Эристика//Эффективное речевое общение(базовые компетенции); словарь-справочник/под ред. А.П.Сковородникова.- Красноярск:Изд-во Сибирского федерального университета, 2012 –С.792
8. «Рисола фи-л-хилоф ва-л-жадал» («Хадислардаги ихтилоф ва бахслар хақида рисола») б. Журжоний. Шархе мавофиқ фи илм ал-калом. – Стамбул: “Дор улматбатул Омера” босмахонаси. 1267 х. й.
9. Ennis, R.H. Critical thinking dispositions: Their nature and assessability /

- R.H. Ennis // *Informal Logic* 18(2 & 3), 1996. – P. 165–182.
10. Facione, P. The disposition toward critical thinking: Its character, measurement, and relationship to critical thinking skill / P. Facione // *Informal Logic* 20(10). 2000. – P. 61– 84.
 11. Fayzixo‘jayeva D. Abu Nasr al-Forobiy va Abu Ali Ibn Sino mantiqiy isbotlash haqida. –Toshkent: “Nishon-Noshir”, 2013. –144 b.
 12. Hamby, B. Libri ad nauseam: The critical thinking textbook glut / B. Hamby. – *Paideusis* 21(1). 2013. – P. 39–48.
 13. Hatcher, D.L. Assessing critical thinking skills: A fifteen-year perspective /D.L. Hatcher // In: J. Sobocan and L. Groarke (Eds.) *Critical thinking, education, and assessment: Can higher order critical thinking be tested?* Althouse Press, University of Western Ontario, London, Ontario. 2009. – P. 229–246
 14. Хазагеров, Г.Г. Контрпродуктивные компетенции / Г.Г. Хазагеров // *Экономика образования*. 2013. № 3. – С. 87–91.
 15. Хазагеров, Г.Г. Две возможности дискурсивной стилистики / Г.Г. Хазагеров // *Дискурс и стиль: теоретические и прикладные аспекты: колл. монография* / Ред. Г.Я. Солганик, Н.И. Клушина, Н.В. Смирнова. – М.: ФЛИНТА: Наука, 2014. – С. 116–127.
 16. Хоменко І.В. Еристика: Підручник. – Київ: Центр учбової літератури, 2008. – 280 с.
 17. Шопенгауэр А. Эристическая диалектика // *Логика и риторика. Хрестоматия* / сост. В.Ф. Берков, Я.С. Яскевич. Мн., 1997. – С. 618-619.
 18. Шопенгауэр А. Искусство побеждать в спорах (сборник) / –М.: «Эксмо», 1900. –С.12
 19. Schopenhauer, A. *L’art d’avoir toujours raison ou Dialectique éristique* (1864) / A. Schopenhauer. – Strasbourg: Circé. 1999. – P.52